

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ERON ISLOM RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI MADANIY ALOQALAR

Bobur Azamatov

Og'abek Keldibekov

Toshkent davlat transport universiteti talabalari

M. N. Hasanov

Ilmiy rahbar, Toshkent davlat transport universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekiston va Eron davlatlarining tarixi, tili, dini, madaniyati, urf-odatlari, iqtisodiyoti va umumiy o'xshashliklari haqida yozilgan. Shuningdek, siz bu maqolada ba'zi bir bilmagan muhim va qiziqarli ma'lumotlar haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Hamkorliklar, oila, uchrashuv, jinslar bo'yicha o'qitilishi, diplomatik aloqalar, O'zbekiston va Eron munosabatlarilari, madaniyat.

KIRISH

O'zbekiston hozirgi kunda bir qator obro`li va jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan xalqaro tashkilotlarning teng xuquqli a'zosi, jahonning o`nlab davlatlari bilan do`stona aloqalarini bog`lagan, yirik bank va moliyaviy tashkilotlar bilan hamda nodavlat va nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 43 ta chet davlatlarning elchixonalari, 15 ta hukumatlararo va 49 ta nohukumat tashkilotlar akkreditatsiya qilingan. Hozirgi kundan O'zbekistonning amaldagi tashqi siyosati jahondagi barcha mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalar yuksak darajada olib borilmoqda. Shu jumladan O'zbekiston va Eron munosabatlarilari ham, O'zbekiston va Eron munosabatlari uzoq tarixga ega. O'zbekiston va Eron munosabatlarilari "Sovetlar davrida rahbarlar islomiy inqilob O'rta Osiyoga tarqaladi deb nihoyatda qo'rqrar edi shu sababdan O'zbekiston va Eron munosabatlariga qarishlik uchrab turardi.. Bu yo'nalishda choralar ko'rар edi. Shimoliy Xuroson provinsiyasi tadbirkorlarining O'zbekistonga tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi 28 fevral kuni "Markaziy" mehmonxonasida ikki mamlakat ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida O'zbekiston-Eron biznes-seminarini tashkil etdi. Ma'lumki, oxirgi yillarda O'zbekiston va Eron o'rtasida iqtisodiy aloqalar ancha yaxshi rivojlanib bormoqda. Ushbu munosabatlar

mahsuliga e'tibor qaratsak, u holda 2006 yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar aylanmasi 658 mln. AQSH dollarini tashkil etganini ko'rish mumkin. Boz ustiga O'zbekiston 582,7 mln. AQSH dollari miqdorida ijobiy saldoga ega (O'zbekiston eksporti – \$620,6 mln. va importi – \$37,9 mln.). O'zbekistonda 89 ta qo'shma korxona faoliyat olib boradi. Ulardan 23 tasi 100 foizlik Eron kapitaliga ega bo'lib, xalq iste'mol mollari, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qurilish materiallari, gilam ishlab chiqarish bilan band. Shuni ta'kidlash zarurki, Eron tovarlarimizni xorijga eksport qilishda asosiy hamkorimiz sanaladi, chunki O'zbekistonning barcha tovarlari Eron bandargohlari orqali jahon bozorlariga chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shimoliy Xuroson provinsiyasi O'zbekistonga eng yaqin mintaqa sanaladi. Kooperatsion birja natijasidan biz ko'p narsalarni kutib qolamiz, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari vakillari hamkorlik istiqbollarini muhokama eta oladi degan umiddamiz. Shuningdek biznes-seminarda Eron Respublikasining mamlakatingizdagi elchisi janob I.Ilohiy ham so'zga chiqdi. U mazkur tadbir tashkilotchilariga, ayniqsa Savdo-sanoat palatasiga minnatdorchilik bildirdi. "Kooperatsion birjada elchixonamizning asosiy vazifasi O'zbekiston biznesmenlari va tadbirkorlariga imkoniyat yaratib berishdir, – deydi janob I. Ilohiy. Mamlakatlarimiz ham iqtisodiy va ham geografik nuqtai nazardan kelishuvga erishgan ekan, biz shunchaki ikki tomonlama munosabatlarni o'rnatishimiz va rivojlantirishimiz zarur. Demak, biz munosabatlar rivojiga turki berishimiz lozim va bu bizning asosiy maqsadimizdir. Janob N.Qosimov ta'kidlaganidek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar aylanmasi 658 mln. AQSH dollarini tashkil etdi, va yaqin vaqt ichida biz bu ko'rsatkichni 1 mlrd. AQSH dollariga yetkazni mo'ljallayapmiz. To'qimachilik sanoati, neylon va neyloks, gilam, kir yuvish va dezinfeksiya vositalari, motor moylari, turli qurilish materiallari, farmatsevtika va tibbiyot uskunalarini ishlab chiqarish, choy va quruq meva savdosini bilan mashg'ul bo'lgan taxminan 40 ta yirik kompaniya, shuningdek transport va savdo kompaniyalari rahbarlari va vakillari delagatsiya tarkibidan joy olgan.

Poytaxtimizdagi Xalqaro hamkorlik markazida 2008-yil 30 iyul kuni Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Eron hukumatlararo komissiyasining to'qqizinchı majlisi bo'lib o'tdi. Tadbirda ikki mamlakatning savdo, iqtisodiyot, yoqilg'i-energetika, bank-moliya, qishloq va suv xo'jaligi, oziq-ovqat, kimyo, transport va transport kommunikatsiyalari, qurilish, to'qimachilik, farmatsevtika, sayyohlik kabi sohalarda faoliyat

ko‘rsatayotgan qator vazirlik va idoralari, firma va kompaniyalari vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, komissiya ham raisi N.Xonov O‘zbekiston bilan Eron o‘rtasidagi aloqalar barcha sohalarda izchil rivojlanib borayotgani, bunda ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlarida erishilgan kelishuvlar muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotganini alohida qayd etdi. Eron Islom Respublikasi savdo vaziri, komissiya hamraisi Sayyid Ma’sud Mirkozimiy mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘slik, o‘zaro hurmat, ishonch va manfaatdorlik asosiga qurilgan hamkorlik siyosi, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy sohalarda izchil rivojlanib borayotganini ta’kidladi. O‘zbekiston va Eron munosabatlarda transport va transport kommunikatsiyalari sohasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimiz o‘z mahsulotlarini Eronning Bandar-Abbos va Chobahor portlari orqali Hind okeaniga chiqaradi. Eron esa O‘zbekiston hududi orqali Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlariga tovar yetkazib beradi. Majlisda birinchi galda Eron hududida yangi temir yo‘l uchastkalarini ishga tushirilishi munosabati bilan tariflarni qayta ko‘rib chiqish va uyg‘unlashtirish, tarif preferensiyaning kengaytirish, belgilangandan ortiq miqdordagi yoqilg‘i uchun to‘lovlarni qisqartirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanmoqda, – deydi Sayyid Ma’sud Mirkozimiy. Tashrifdan maqsadimiz barcha sohalardagi o‘zaro munosabatlarni yanada kengaytirish va mustahkamlashdan iborat. Muloqotlar tez orada samara berishiga shubha yo‘q. 2007 yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 565 million AQSH dollarini, joriy yilning yanvar-iyun oylarida esa 384,8 million dollarni tashkil qildi. O‘zbekiston Eronga asosan paxta tolasi, qora va rangli metalllar, organik o‘g‘itlar hamda ipak kabi mahsulotlarni eksport qiladi. Erondan O‘zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlari, meva, lok-bo‘yoq va boshqa turdagи qurilish-bezash materiallari keltiriladi. Yurtimizda eronlik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tuzilgan 117 qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda Eronning 29 kompaniyasi o‘z vakolatxonasini ochgan. Majlisda ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi, istiqbolli sohalar belgilab olindi. Kimyo va oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi sohalardagi aloqalarni yanada kengaytirish, ikki tomon uchun ham manfaatli bo‘lgan qo‘shma loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Qo‘shma korxonalarini va tovar ayirboshlash hajmini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Forumda ikki mamlakat o'rtasida sarmoyaviy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini shakllantirish, sarmoyalarni jalg qilish va o'zaro rag'batlantirishni yanada takomillashtirish, kimyo, oziq-ovqat, qurilish, sayyoqlik kabi sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi. Eron kompaniyalarini mamlakatimizdagi xususiyashtirish jarayoniga keng jalg etish masalasi ham atroflicha muhokama qilindi. Bunda O'zbekiston va Eron ishbilarmonlari o'rtasidagi bevosita hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish muhim o'rinn tutishi alohida ta'kidlandi. Eron va O'zbekiston aloqalari so'nggi yillarda bir qadar illiqlashgan. O'zbekiston 1990-yillarda Eronga nisbatan sanksiyalar joriy etilishini yoqlab chiqqan edi. Keyinchalik Muhammad Hotamiy prezidentlikka kelib, munosabatlarda tiklanish kuzatildi.

O'zbekiston Eron orqali o'z yuklarini dengizga olib chiqadi, Eron MDH davlatlariga yetkazayotgan mollarini O'zbekiston orqali olib o'tadi. Sharhlovchilar aytadiki, Eron bilan siyosiy munosabatlar yaqin yoki ziddiyatli deyishga ham asos yo'q. Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati. Yuzaki qaralganda, kundalik hayotda "madaniyat" so'zidan insonning faoliyat tarzini va jamiyatning qay darajada rivojlanganligini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida foydalaniladigandek tuyuladi. Lekin madaniyat so'zining mazmun-mohiyatiga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko'plab qarashlar, nazariyalar va g'oyalarga, tushuncha va tasavvurlarga nisbatan qo'llanilishini ham anglab yetamiz. XX asrning 50-yillari boshida amerikalik madaniyatshunos olimlar Alfred Kreber va Klayd Klakxonlar o'zlarining «Madaniyat: tushuncha va ta'riflar» nomli asarida madaniyatning 164 ta ta'rifi mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadilar. Hozirgi paytda «madaniyat» atamasining 400 dan ortiqroq ta'rif mavjud. Agar ularga e'tibor bersak, madaniyat tushunchasi keng qamrovli hayotning deyarli barcha va hatto bir-biriga zid bolgan sohalarini ham qamrab oluvchi tushuncha ekanligini ko'ramiz. Shu boisdan ham madaniyat tushunchasiga insonning aqliy faoliyati va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi tushuncha sifatida ta'rif berish juda mushkul. Madaniyatshunoslikka oid adabiyotlarga nazar tashlasak, madaniyatning turlicha ta'rif-u talqinlari mayjudligini ko'ramiz, chunonchi: «inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi»; «moddiy va ma'naviy qadriyatlar»; «inson tomonidan yaratilgan ikkinchi tabiat»; «insoniy faoliyat mahsuli»; «ijodiy faoliyat»; «ijodiy faoliyat mahsuli»; «jamiyatning m a'naviy hayoti»; «insonning ma'naviy dunyosi»; «insonning axloqiy fazilatlari»; «insonning ichki va tashqi olami»; «axloqiy sifatlar yig'indisi»; «jamiyat faoliyati»; «shartli belgilar tizimi yig'indisi»; «shartli tasvirlar»; «ramziy ishora va belgilar»; «me'yor va andazalar» va

shu kabilar. «Kultura» atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, uni birinchi marta fanga 1871- yili tarixchi va etnografolim E .Taylor kiritgan. Uning ko‘rsatishicha, o‘sha paytda bu tushunchaning bor-yo‘g‘i 7 tagina ta’rifi bolgan . Eron hududida odamzod ilk paleolit davridan yashaydi. Eronliklar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar Ossuriya yozma yodgorliklarida keltirilgan. Miloddan avvalgi 834-yilda shoh Salmanasar IIIning sharqqa qilgan yurishini tavsiflovchi mixxat yozuvlarida qadimiylorsa tilida so‘zlashuvchi xalqlar istiqomat qilgan Parsua mamlakati qayd etilgan. Miloddan avvalgi 3-ming yillik boshida Eronning janubig‘arbida dastlab shahardavlatlar, keyinroq Elam davlati paydo bo‘ldi. Miloddan avvalgi 2- ming yillik davomida Eron hududiga hind-eron tillarida so‘zlashuvchi hind-yevropa qabilalari kirib kela boshlagan. Eron davlatining 99% qismini shialar tashkil qiladi. Ularning davlat tili fors tilidir. Ularning ham o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari va an’analari mavjud. Ularga bir to’xtalib o‘tsak. Eronda erkaklar o‘z oilasiga juda ham sodiqdir. Uydagi muammolarini iloji boricha ommaga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Eronlik yosh bolalar o‘z oilasida erkin fikrlay olishga qodirdirlar. Eron madaniyatida esa o‘g‘il bolalar qiz bolalarga nisbatan harakati cheklanmagan qonun-qoidaga rioya qilgan holda, lekin eronlik ota-onalar o‘g‘il bola ham, qiz bola ham ilm olish jihatidan bir xil salohiyatga ega bo‘lish kerakligini tushuntirishgan. Endi esa biz jins bo‘yicha ajratishga keladigan bo‘lsak, forslar islam dinida keltirilgan barcha yaxshi amallarga rioya qilishga harakati qilishadi. Fors ayollarini yuzida hijob, shuningdek, ularga nomahram bo‘lgan erkaklar bilan yurish qat‘iyan ta’qiqlangan. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilari maktabda o‘g‘il bolalar alohida, qiz bolalar alohida tahsil olishadi. Shunga qaramasdan, eronlik ayollarning bilim salohiyati yuqoriroq. Lekin oilani boqish erkak kishini zimmasida bo‘lgani uchun barcha kasb sohalarida ayollarning oylik ish haqlari nisbatan pastroq sifatida to‘lanadi. Eron 1945-yildan BMT a’zosi. O‘zbekiston Respublikasi suverenitetini 1991-yil 25-dekabrda tan olgan va 1992-yil 10-mayda diplomatiya munosabatlari o‘rnatgan. Milliy bayrami-11-fevral -Islam inqilobi kuni. O‘zbekiston - Eron munosabatlari - Eron O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olib, ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgach, 1992 yil noyabrda Eroning Toshkentdagi elchixonasi, 1995 yil mayda O‘zbekiston Respublikasining Tehrondagi elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. Ikki mamlakat o‘rtasida transportkommunikatsiya, neftkimyo, bank, bojxona, farmatsevtika, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va giyohvand moddalarning noqonuniy tarqatilishiga qarshi kurash sohalarida keng hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi Kunda O‘zbekiston va Eron munosabatlarining shartnomaviy huquqiy asosini 50 dan ortiq hujjat tashkil etadi. O‘zbekiston

Respublikasi va Eron o‘rtasida savdoiqtisodiy sohadagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning tamoyil va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi bir qator davlatlararo va hukumatlararo shartnomalar hamda idoralalararo hujjalalar imzolangan.

XULOSA

Xulosa qilib Maqolamizning so’ngida shuni aytish mumkinki, O’zbekiston va Eron davlatlari qadr-qimmati, urf-odatlari, an’analari, madaniyati, dini va e’tiqodi bilan hamohang yaqindir, ayniqsa dini, o’zbek va fors erkaklarining kuchli g’ururi, ota-onalarning bolalariga bo’lgan munosabatlari, akalarning singillarini himoya qilishi, iffati, sha’ni, shuningdek, ikki davlatning tarixga boy ko’pgina shaharlari, chet ellik mehmonlarni e’zozlashi va ko’pgina sifatlari bilan chambarchas o’xshashlikni ko’rishimiz mumkin. Nafaqat bular, balki ikki davlat o’rtasidagi bardavom tarixlar osha davom etib kelayotgan o‘zaro hamkorliklar, madaniy rishtalar va barcha-barchasini alohida ta’kidlab o’tish zarur. Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, O’zbekiston va Eron og’a-inidek qardosh xalqlardir !

REFERENCES

1. Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta’lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovation, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 2 (6), 937-942.
2. У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
3. Жуманиёз Султонович Раматов, Машкура Инамжанована Рахимова, & Миршод Нўймонович Ҳасанов (2022). МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 1031-1036.
4. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (6), 532-536.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўймонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1345-1354.
6. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.
7. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 963-969.

8. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
9. Ҳасанов, М. Н., Бекмуратов, Б. Ж., Турғунов, Б. Ш., & Маматқулов, У. С. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ.
10. Ҳасанов, М. Н., Зайниддинов, Б. З., Абдухалилов, О. А., & Джурайев, Д. Д. (2022). МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ.
11. Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovations, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 2 (6), 937-942.
12. У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
13. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИННИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
14. J. S. Ramatov, M. Hasanov MAFKURAVIY AXLOQ TARBIYASINING AHAMIYATI // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).
15. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР –ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.
16. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 1161-1169.
17. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИННИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
18. Раматов, Ж. С., & Баратов, Р. У. (2018). НОВЫЙ ПОДХОД ПОДГОТОВКИ КАДРОВ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПЕРСПЕКТИВА И ИННОВАЦИИ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 89-91.
- 19..Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
- 20.Рашит Ўсарович Баратов (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОХОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 90-95.
- 21.Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).